3. Teamwork. Use a variety of engagement styles in the classroom. Students should collaborate in teams, couples, and independently. Groupings must to be switched up often to provide students a chance to interact with other students. It will be easier to accommodate the range of levels in the class if students′ work in the class is varied. There is a chance that these groupings will have comparable or mixed levels. In a smaller group, it is hoped that the weaker student would feel more capable of contributing. Divide the information among the pupils if the group is working with a certain set of facts, pushing them to cooperate. Consider assigning various levels or quantities of work to each group by splitting your class into levels for the duration of the course. The class′s discussion of this tactic should aid in preventing stigmatization.

4. Work in pairs. Strong and weak can be paired, as well as strong and weak. Perhaps the strong with the weak will function nicely in a carefully restricted activity. Perhaps using strong with strong will be advantageous in a more liberated action. Here, variety in the pairings is vital, and you should also pay attention to the connections in general.

5. The entire class mingle. This is one of my preferred approaches.

During a mingle exercise, students must converse or engage with a large number of different classmates quickly in order to complete a task. This implies that every student will interact with students who are working at varying levels and will have greater and worse communication. This helps the less capable kids and gives the more capable ones opportunity.

6. Giving Different Students Different Instruction.

Because of the input of the more accomplished students, the average and lower performing students are encouraged to attempt and expand their knowledge. Teachers may adapt to a wide range of diverse interests, cultural backgrounds, and global knowledge by using differentiated education, which leads to more engaging classroom engagement. Setting the stage for the acceptance of diversity begins with the mindset of the instructor.

7.Process. Process refers to how students interact with and absorb material. This is crucial because it gives pupils the chance to give new information time to fully sink in. Students get the chance to assess what they may or may not comprehend via the process. Teachers can monitor and evaluate a student's development using this procedure. For instance, John McCarthy, an educational consultant, advises instructors to create "one or two processing experiences for every 30 minutes of instruction." Through these interactions, both students and teachers may take a break and determine who requires extra education and who does not.

8.Products. Products are tasks or projects that motivate students to apply knowledge in both inside- and outside-the-classroom contexts. For instance, when the material has been covered and students have had time to comprehend it, encourage them to create a project of their own that best demonstrates what they have learned. For instance, smaller kids can produce a poster board with images and labeling, while older students might write a little play or draw illustrations. Teachers might wish to provide pupils with a menu of possibilities and even let them work in groups.

CONCLUSION

In my conclusion, be courteous in your questioning strategies. By choosing weaker students to be the first to respond to a question in open class, try to avoid putting them "on the spot." Instead, make an effort to foster a culture of attentive listening in the classroom by asking a better student a question before asking a weaker student to repeat it. This type of contact may take some getting used to, but once it does, it may be highly beneficial for class dynamics. If you only teach a few more differentiated lessons, even the teacher could find it enjoyable. Dare to be different, and you never know what you could discover. Be honest, and display your vitality and excitement!

References:

1. Bowler, B., Parminter, S. Mixed-level teaching: tiered tasks and bias tasks. Cambridge: Cambridge University press, 2002. – p 59-63
2. Harmer, J. How to teach English. – Harlow: Longman, 1998. –p 127-134.
3. Alexander, L,G. Practice and Progress. – Harlow: Longman, 1967. –p 142-144.
4. Seymour D. Popova M. Classroom activities. – Macmillan, 2003-2005. – p 19.
5. Senthilkumar M. problems and perspectives in Teaching English in Mixed-ability Classrooms. – Salem, 2010. – p 112-134.
6. Tashkenbayevna, S. K., Rozikovich, S. I., Vladimirovna, L. L., Sotivoldiyevich,
7. O. M., Mukhammadjonovich, B. A., Omonboyevich, A. B., & Valikhojayevich, S. Z. (2020). Pedagogical technologies and interactive methods as a factor of increasing special knowledge of students. Journal of Critical Reviews, 7(6), 42-46.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12754112

GLITSIN AMINOKISLOTASINING KVANT-KIMYOVIY HISOBLASHLARI

Ganiyev Baxtiyor Shukurulloyevich,

Qodirova Zulfiya Kobilovna,

Xoliqova Gulyayra Qo‘ldoshevna,

Jumayeva Zarina Rustam qizi,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Maqolada glitsin aminokislotasining kimyoviy xossalari va kvant-kimyoviy hisoblashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlil etilib, natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. ORCA va Gaussian dasturlarida glitsinning geometriyasini to’liq optimallashtirish bilan elektron tuzilishini hisoblash DFT - funktsional zichlik nazariyasi usulida B3LYP/6-311G(d,p) va M062X/6-311++G** hamda B3LYP/6-31++G valent bo’lingan asosli to’plamlar doirasida amalga oshirildi. Shuningdek, glitsin molekulasining biologik faolligi – PASS analizi va molekulyar doking usullarida baholandi.*

Kalit so‘zlar: *aminokislota, kvant-kimyoviy hisoblash, DFT, Mulliken, zaryad, elektron tuzilish, HOMO, LUMO, glitsin, IQ-spektroskopiya, PASS analiz, molekulyar doking.*

Kirish

Aminokislotalar — molekulasida amin va karboksil guruhi bo‘lgan organik birikmalar, o‘simlik hamda hayvon oqsilining asosiy elementi hisoblanadi. A- rangsiz, suvda eruvchan kristall moddalar. 200 ta tabiiy Aminokislotalar ma’lum. Lekin oqsillar tarkibida faqat 20 Aminokislotalar va ularning 2 ta amidi uchraydi. Qolganlari oqsillar tarkibiga kirmaydi. Aminokislotalarning D-yoki L-qatorga tegishligini N va NH_2 guruhning uglerod atomida qanday joylashganligi ko‘rsatadi. Deyarli barcha tabiiy A L-qatoriga kiradi. D-qatorga mansub Aminokislotalar tabiatda kamdan-kam bo‘lib, mikroorganizmlar tarkibida topilgan. Aning L-formasi o‘simliklar tomonidan yaxshi o‘zlashtiriladi va u moddalar almashinuvining barcha jarayonlarida qatnashadi, lekin

D-formalarini o‘simliklar o‘zlashtira olmaydi, ba’zan ular moddalar almashinuvi jarayonlarini to‘xtatib qo‘yadi. Bu organizmning fermentativ sistemasi Aminokislotalarning L-qatoriga moslashganligidan darak beradi. Aminokislotalar organizmda erkin holda va oqsillar yoki boshqa birikmalar tarkibida uchraydi. Oqsillar sintezi uchun a formali 20 Aminokislotalar- proteinogen Aminokislotalar (lizin, gistidin, arginin, aspartat kislota, asparagin, treonin, serin, glutamat kislota, glutamin, prolin, glitsin, alanin, sistein, izoleysin, leysin, metionin, valin, tirozin, fenilalanin va triptofan)dan foydalaniladi [1].

Glitsin — glikokol, aminosirka kislota, NH_2—CH_2—COOH, rangsiz kristall modda. Glitsin nomi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, glycys - shirin, aminokislotalarning shirin ta’mi tufayli shunday nom berilgan. Suyuqlanish temperaturasi 232—236° (parchalanadi), Mr=75,07, zichligi 1595 kg/m^3. Suvda yaxshi eriydi, ko‘pchilik organik erituvchilarda erimaydi. Oqsil moddalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [1, 6-9].

Glitsin — amin sirka kislotasi, eng oddiy almashadigan amin kislotasi. Barcha oqsillarning tarkibiga kiradi, tirik organizmda bo‘shda uchraydi. Glitsin — ko‘plagan proteinlar bilan biologik birikmalarning (glutation, kreatin v.h.) tarkibiga kiradi. Tirik hujayralarda glitsindan porfirinlar va purin asoslari tuziladi. Glitsin kislota bo‘lib, metall ionlari bilan murakkab tuzlar (glisinatlar yoki xelatlar) hosil qiladi: natriy glitsinat , temir glitsinat, mis glitsinat, rux glitsinat, marganets glisinat va boshqalar [2,3,8,9].

Eksperimental qism

Glitsin molekulasining reaksion qobiliyati va koordinatsion bog‘lanish imkoniyatlarini va korroziya ingibatorlik xossalarini o‘rganish maqsadida kvant-kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi. Barcha hisoblashlar Gaussian va ORCA dasturlaridan foydalangan holda amalga oshirildi [10,11, 15, 16]. Hisoblash natijalarini tahlil etish va vizuallashtirish uchun Avogadro va Chemcraft dasturlaridan foydalanildi [12, 13].

Beckning uch parametrli funksional gibridini LYP funksional korrelyatsiyasi bilan birgalikda ishlatish (B3LYP) eng mustahkam gibrid oilalardan biri hisoblanadi [15, 16, 18, 19]. Gaussiandagi hisoblangan out fayllari Gauss View dasturi yordamida vizualizatsiyalashtiriladi [15, 16, 19]. Elektron xossalarni, YuBMO-QBMO/(HOMO-LUMO) energiyalarni, zaryadlarning atomlar bo‘yicha Malliken taqsimotini hisoblashlar funksional zichlik nazariyasi (DFT) (B3LYP) usuli yordamida 6-311G++ (d, p) asosli to‘plam bilan amalga oshirildi.

Ushbu maqolada alaninning biologik faolligi PASS – komputer dasturi yordamida bashorat qilindi. Bu dastur PASS (Prediction Activity Structure Substances – Moddalarning tuzilishiga asosan faolligini bashorat qilish) Rossiyalik olimlar V.V. Poroikov hamda D.A. Filimonovlar tomonidan yaratilgan [20]. PASS online dasturi (https://www.way2drug.com/PASSOnline/index.php) biologik faolligi ma'lum bo'lgan 30 000 dan ortiq biologik faol moddalarni o'z ichiga olgan majmuani o'z ichiga oladi va 400 dan ortiq farmakologik ta'sirlarni, ta'sir qilish mexanizmlarini, shuningdek mutagenlik, kanserogenlik, teratogenlik va embriotoksiklikni qamrab oladi [21]. PASS ochiq tizim bo'lib, foydalanuvchi mavjud o'quv majmuasiga qo'shimcha moddalar qo'shishi yoki uni qayta yaratishi va tizimni qayta tayyorlashi mumkin.

Alanin aminokislotasining zamburug'ga nisbatan faolligi ***Vertisilium dalhliae*** zamburug'idan olingan oqsil (PDB ID: 5xmz) ga CB-Dock2 onlayn serveri yordamida o'zaro ta'sirini o'rganildi va natijalar maqolaning muhokama bo'limida bayon etildi [22, 23].

Olingan natijalar va ularning tahlili

1 va 2 rasmlarda Gaussian dasturi B3LYP/6-31**G va MO62X/3-311+G** usullarida optimizatsiyalangan glitsin molekulasi tuzilishi va mulliken zaryad taqsimoti keltirilgan.



a ***b***

1-rasm. B3LYP/6-31++G usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining tuzilishi (***a***) va Mulliken zaryad taqsimoti (***b***)

a ***b***

2-rasm. M062X/6-311++G** usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining tuzilishi (***a***) va Mulliken zaryad taqsimoti (***b***)

3-rasmda esa ORCA dasturi B3LYP/6-311(d,p) usulida optimizatsiyalangan glitsin tuzilishi va zaryad taqsimoti keltirilgan.

a ***b***

3-rasm. ORCA dasturida B3LYP/6-311G(d,p) usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining tuzilishi (***a***) va Mulliken zaryad taqsimoti (***b***)

1-jadval

Gaussian va ORCA dasturlarida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining Mulliken zaryad taqsimoti

Gaussian B3LYP/6-31++G	Gaussian M062X/6-311++G**	ORCA B3LYP/6-311G(d,p)
0 C 0.385064	0 C 0.331444	0 C 0.332021
1 N -0.856574	1 N -0.520540	1 N -0.512233
2 C -0.467237	2 C -0.175185	2 C -0.170313
3 O -0.427835	3 O -0.330863	3 O -0.331458
4 O -0.463841	4 O -0.294792	4 O -0.308679
5 H 0.381939	5 H 0.222998	5 H 0.215561
6 H 0.401161	6 H 0.221924	6 H 0.214820
7 H 0.255927	7 H 0.146927	7 H 0.144829
8 H 0.279330	8 H 0.151310	8 H 0.159100
9 H 0.512066	9 H 0.246777	9 H 0.256352

1-jadvaldagi glitsinning mulliken zaryad taqsimoti tahlil etilganda COOH-karboksil guruhidagi C=O ning kislorodi uchun -0.426 (B3LYP/6-31++G), -0.291 (M062X/6-311++G**) va -0.331 (B3LYP/6-311G(d,p)) ga teng bo‘ladi. COOH-

karboksil guruhidagi O–H gidroksil ioni kislorodi uchun esa -0.443 (B3LYP/6-31++G), -0.211 (M062X/6-311++G**) va -0.295 (B3LYP/6-311G(d,p)) ga teng bo‘ladi. Shuningdek, $–NH_2$ amino guruhning azot atomida manfiy zaryadlar taqsimoti -0.856 (B3LYP/6-31++G), -0.520 (M062X/6-311++G**) va -0.512 (B3LYP/6-311G(d,p)) ga teng bo‘ladi.

2-jadval

Gaussian va ORCA dasturlarida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining dipol momenti qiymatlari

Hisoblash dasturi va usuli	Gaussian M062X/6-311++G**	Gaussian B3LYP/6-31++G	ORCA B3LYP/6-311G(d,p)	Gaussian B3LYP/6-311++G(3df,2p)
Dipol moment	5.7130	6.4899	5.57090	7.20; 13,07 [9]

Turli dastur va usullardan foydalangan holda kvant-kimyoviy hisoblash natijalariga ko‘ra glitsin molekulasining umumiy dipol moment qiymatlari μ=5.7130 D (M062X/6-311++G**), μ=6.4899 D (B3LYP/6-31^{++}G) va μ=5.57090 D (B3LYP/6-311G(d,p)) ga teng bo‘ladi (2-jadval). [24] adabiyotda glitsin molekulasining svitter-ion holati shaklida modellashtirlishi amalga oshirilgan bo‘lib, unga ko‘ra dipol momenti qiymati glitsin molekulasining barqaror konformerida μ=7.20 D dan μ=13.07 D ga qadar oshganini va bu qiymat konformerga nisbatan 1,8 martaga ortiq ekanligi belgilangan. Yana bir e’tiborli jihati shundaki, glitsinngin svitter-ion holdagi konformeri Gly(ZW) PMC modeli bo‘yicha umumiy energiya qiymati 7,908 kj/mol ga ortiq bo‘lgan. Hisoblashlarda glitsin va suv molekulalari nisbatiga ko‘ra natijalar tahlil etilganda Gly(IIp)+ H_2O sistemasi uchun dipol momenti qiymati μ=13.47 D ga va umumiy energiyasi 15,081 kj/mol ga teng bo‘ladi. Suv molekulasi sistemada ortishiga qarab dipol momenti ko‘rsatgichi μ=15.42 D va μ=18.06 D ga teng bo‘lgan. Mualliflar tomonidan olib borilgan kvant-kimyoviy hisoblashlarda esa umumiy energiya qiymati -284,(3-4) oralig‘ida bo‘ldi (3-jadval).

3-jadval

Gaussian va ORCA dasturlarida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining umumiy energiya qiymatlari

Hisoblash dasturi va usuli	Gaussian M062X/6-311++G**	Gaussian B3LYP/6-31++G	ORCA B3LYP/6-311G(d,p)
Umumiy energiyasi, a.u.	-284.408	-284.348	-284.369

*Izoh. 1 a.u. energiya birligi = 2625 kJ/mol = 627.51 kcal/mol = 27.21 eV ga teng.



4-rasm. ORCA dasturida B3LYP/6-311G(d,p) usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining energetic taqsimoti

Glitsin molekulasining funksional zichlik nazariyasi DFT asosida reaksion qobiliyati elektromanfiylik (χ), kimyoviy potensial (μ), umumiy qattiqlik (η), umumiy yumshoqlik(S), σ-absolut yumshoqlik va elektrofillik indeksini (ω) hisobga olgan holda aniqlangan. Boshqacha qilib aytganda, bu parametrlar molekulalarning reaktivligining global deskriptorlarini aniqlaydi va Koopmans teoremasi asosida global reaktivlik tendensiyalarini muvaffaqiyatli ravishda oldindan ko‘rsatib beradi. Ushbu reaktivlik xususiyatlari E_{HOMO}, E_{LUMO} $\chi = -1/2(E_{LUMO} + E_{HOMO})$, $\mu = -\chi = 1/2 (E_{LUMO}+E_{HOMO})$, $\eta = 1/2 (E_{LUMO}- E_{HOMO})$, $\sigma = 1/\eta$, $S = 1/2\eta$ i $\omega = \mu^2/2\eta$ kabi chegara molekulyar orbitallarining energiyasidan foydalangan holda hisoblab topildi (4-jadval, 4-rasm).

4-jadval

Glitsinning kvant-kimyoviy hisoblash usullari bilan aniqlangan energetik parametrlari

Hisoblash dasturi va usuli	$E_{(HOMO)}$ eV	$E_{(LUMO)}$ eV	ΔE	χ	η	σ	μ	S	ω
ORCA/ B3LYP/ 6-311G(d,p)	-6.998	0.213	-7.211	3.3925	-3.6725	-0.272	-3.3925	-1.836	-1.567
Gaussian/M062X/ 6-311++G**	-9.210	-0.568	-8.642	4.889	-4.321	-0.231	-4.889	-2.1605	-2.765
Gaussian/B3LYP/ 6-311G(d,p)	-7.296	-1.003	-6.293	4.1495	-3.1465	-0.317	-4.1495	-1.573	-2.736
MOPAC 7.0/SCF-MO/PM3 [102]	− 9.9053	0.9046	-10.8099	4.50035	5.40495	0.18501	-4.50035	0.0925	1.8735
NWChem-6.6/ 6 –311++G**	− 7.39	− 0.92	-6.47	4.155	3.235	0.3091	-4.155	0.1545	2.6683

2100 va 2600 sm^{-1} mintaqalarida glitsin kukuni spektrlarida juda zaif va keng cho‘qqilar kuzatiladi, ular suv qo‘shilishi bilan kamayadi. Bu cho‘qqilar dimerlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va suv qo‘shilishi ularning nisbati pasayishiga olib keladi. 2900 sm^{-1} dan yuqori bo‘lgan hududda 2974 sm^{-1} da intensiv o‘tkir chiziq va 3009 sm^{-1} da sezilarli darajada kamroq intensiv chiziq C–H cho‘zish tebranishlariga to‘g‘ri keladi va 3100–3200 sm^{-1} mintaqasida zaif keng chiziq kuzatiladi (5-7-rasmlar, 5-jadval). Oxirgi tarmoqli N-H va O-H cho‘zilgan tebranishlarga tegishli bo‘lishi kerak. Spektrlarning qiyosiy tahlili faol guruhlar -COOH va $-NH_2$ ning qo‘shni glitsin molekulalari va suv molekulalari bilan o‘zaro ta’siri haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.



5-rasm. Glitsinning IQ spektri



6-rasm. M062X/6-311++G** usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining IQ spektri



7-rasm. B3LYP/6-31++G usulida optimizatsiyalangan glitsin molekulasining IQ spektri

5-jadval

Turli kvant-kimyoviy usullarda hisoblangan glitsin molekulasining IQ spektr tebranish sohalari

M062X/6-311++G**		B3LYP/6-31++G		Funksional guruh
Tebranish chastotasi	IQ intensivligi	Tebranish chastotasi	IQ intensivligi	
76.7849	2.6358	76.1658	1.1264	
257.3983	14.1191	305.3341	5.255	
321.8624	17.0381	314.0091	23.4867	
516.4455	3.5189	507.1092	1.2941	

555.7607	8.4409	550.6392	4.8504	
655.4487	7.3644	629.0774	14.6822	
815.7254	118.4713	751.5683	150.645	
837.9575	46.2537	851.8354	80.4809	
897.4073	61.4634	911.1729	96.8371	
948.4771	56.9355	923.126	52.2236	
1103.813	14.2041	1076.719	29.0076	
1173.321	2.8836	1180.416	0.9667	
1243.263	13.184	1183.362	48.9535	
1332.791	9.276	1342.794	358.6844	
1372.712	7.5588	1359.165	1.046	
1430.847	437.028	1378.367	18.243	
1474.735	3.4752	1500.246	14.2316	
1664.356	41.8225	1708.361	52.9928	
1904.527	407.8664	1758.954	320.9282	
3093.06	9.3881	3075.74	10.0441	
3141.066	3.6074	3125.668	4.4383	
3570.081	25.6056	3270.933	251.4155	
3627.263	263.6828	3561.03	2.8808	
3654.936	23.1689	3670.508	20.3153	

Glitsinning PASS analizi

PASS dasturi stereoizomerlarning biologik faollikning namoyon bo‘lishiga ta’sirini baholashga imkon bermaydi, chunki hozirgi vaqtda ko‘plab moddalarning fazoviy tuzilishining xususiyatlarini hisobga oladigan dasturiy ta’minot mavjud emas. Tabiiyki, PASS dasturi tomonidan bashorat qilingan biologik faolliklarini tahlil qilishda eksperimental sinovlarning real imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Bunday holda, biologik faollikni eng ko‘p ehtimoldan eng kam ehtimolgacha ketma-ket o‘rganish tavsiya qilinadi.

PASS dasturi yordamida alifatik monoamino- monokarbon kislota –glitsinning biologik faolliklari o‘rganildi (6-jadval).

6-jadval

Glitsinning PASS online dasturi bo‘yicha birikmalarning yuqori biologik faollik turlari va ko‘rsatkichlari

P_a - Faollik	**P_i - Nofaollik**	**Biologik faollik turi**
0,943	0,001	Mucinaminylserine mucinaminidase inhibitor
0,941	0,002	NADPH peroxidase inhibitor
0,937	0,003	Monodehydroascorbate reductase (NADH) inhibitor
0,930	0,002	Fucosterol-epoxide lyase inhibitor
0,930	0,004	Methylenetetrahydrofolate reductase (NADPH) inhibitor
0,924	0,003	Superoxide dismutase inhibitor
0,923	0,002	Peptide agonist
0,919	0,004	Sphinganine kinase inhibitor
0,917	0,003	Glucose oxidase inhibitor
0,914	0,003	Protein-disulfide reductase (glutathione) inhibitor
0,910	0,001	D-alanine 2-hydroxymethyltransferase inhibitor
0,909	0,001	Glycopeptide alpha-N-acetylgalactosaminidase inhibitor
0,905	0,005	Polyporopepsin inhibitor
0,905	0,004	Pro-opiomelanocortin converting enzyme inhibitor
0,902	0,004	Arylacetonitrilase inhibitor

Glitsinning molekulyar dokingi

Glitsinning biologik faolligini o‘rgsnish maqsadida ***Vertisilium dalhliae*** (PDB ID: 5xmz) zamburug‘idan olingan oqsilga ta’sirini o‘rganish maqsadida CB-Dock2 va Arguslab dasturlaridan foydalanildi [22, 23, 28-32].

CB-Dock2 onlayn serveri yordamida dastlab 5XMZ oqsilining ligand bilan ta’sirlashish bo‘shliqlari izlandi, bunda 103, 92, 88, 55 va 48 Å3 hajmdagi 5 ta faol bo‘shliq markazi aniqlandi (8-rasm). So‘ng ligand va oqsil serverga yuklanib, molekulyar dokingi amalga oshirildi.

7-jadval

Glitsinning 5XMZ oqsiliga molekulyar doking natijalari

Bo‘shliq raqami	Bo‘shliq hajmi (Å^3)	Markaz (x, y, z)	Bo‘shliq o‘lchami (x, y, z)	Bo‘shliq raqami	Vina score	Bo‘shliq hajmi (Å^3)	Markaz (x, y, z)	Doking hajmi (x, y, z)
C1	103	-11, 31, 2	12, 9, 6	C3	-4.0	88	-24, 27, -4	15, 15, 15
C2	92	-21, 37, 0	8, 5, 5	C1	-3.3	103	-11, 31, 2	15, 15, 15
C3	88	-24, 27, -4	6, 7, 7	C5	-2.9	48	-10, 22, -22	15, 15, 15
C4	55	-7, 36, -4	7, 5, 8	C4	-2.8	55	-7, 36, -4	15, 15, 15
C5	48	-10, 22, -22	5, 5, 3	C2	-2.7	92	-21, 37, 0	15, 15, 15

Oqsil va ligandning o‘zaro ta’siridan yuqoridagi keltirilgan bo‘shliqlarga mos ravishda -4,0; -3,3; -2,9; -2,8 va -2,7 kcal/mol energiyaga ega faollik kuzatildi (9-rasm). Natijalar shuni ko‘rsatadiki hajmi eng katta va eng kichik bo‘shliqda ligandning faolligi yuqori bo‘ladi.



8-rasm. Bo‘shliqlarni qidirish natijalari



9-rasm. 5XMZ oqsilining izlangan bo‘shliqlariga ligandning o‘zaro ta’siri

Xulosalar

Xulosa o‘rnida olngan tadqiqot natjilari asosida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida korroziya ingibitorlik xossasi aniqlandi.

- DFT hisoblashlari va eksperimental olingan IQ spektr parametrlari taqqoslab, tahlil etildi.

- biologik faolliklari PASS analizi va molekulyar doking asosida baholanib, 40 dan ortiq biologik faollik hamda 5XMZ oqsiliga nisbatan -4,0 kcal/mol ta'sir energiyasi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Нурутдинова Ф.М., Авезов Х.Т., Ганиев Б.Ш. Лабораторные работы по биоорганической химии //Учебное пособие. – №. 500-046.
2. Кадырова Р. Г., Кабиров Г. Ф., Муллахметов Р. Р. Разработка рационального способа получения комплексных солей марганца, железа с глицином и метионином //Ученые записки Казанской государственной академии ветеринарной медицины им. НЭ Баумана. – 2013. – Т. 216. – №. 4. – С. 150-157.
3. Zhang D.Q. et al. Intramolecular synergistic effect of glutamic acid, cysteine and glycine against copper corrosion in hydrochloric acid solution //Thin Solid Films. – 2011. – Т. 520. – №. 1. – С. 356-361.
4. Северин Е.С. Биохимия: Учебник для вузов под. редакции Северина Е.С. – Москва: ГЭОТАР Медиа. – 2004. – 784 с.
5. Сыровая А.О., Шаповал Л.Г., Макаров В.А. и др. Аминокислоты глазами химиков, фармацевтов, биологов в двух томах. - Харьков. – Щедра садиба плюс. - 2014. – Том №1. – 228 с.
6. Qodirova Z.K. Bioorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoxnoma. № DGU 35294. Talabnoma DGU 202402965. Dasturiy mahsulotlar davlat reestrida 25.03.2024 y. ro'yxatdan o'tkazilgan.
7. Qodirova Z.K. Bioorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. Buxoro, Durdona. 2022. -144 b.
8. Племенков В.В. Введение в химию природных соединений. Казань. 2001. 376 с.
9. Тюкавкина Н.А., Бауков Ю.И.. Биоорганическая химия. 3-е издание. Москва. 2004. 528 с.
10. Neese F. // Wiley Interdiscip. Rev.: Comput.Mol.Sci. 2012. V.2. N.1. P.73-78.
11. Snyder, Henry David, and Tugba G. Kucukkal. "Computational chemistry activities with Avogadro and ORCA." Journal of Chemical Education V.98. N.4 2021. P.1335-1341.

12. Snyder, Henry David, and Tugba G. Kucukkal. "Computational chemistry activities with Avogadro and ORCA." Journal of Chemical Education V.98. N.4 2021. P.1335-1341.

13. Andrienko, G. A. "ChemCraft, Version 1.8 (build 489)." URL: http://www. chemcraftprog. com (2020).

14. Frisch M.J. et al. Gaussian 16, Revision A. 03, Gaussian //Inc., Wallingford CT. 2016. – T. 3.

15. Бутырская Е.В., Компьютерная химия: основы теории и работа с программами Gaussian и Gaus Veiw. Москва, Салон-Пресс, 2011, 224 с.

16. Cramer J.C. Essentials of Computational Chemistry. Theories and Models. John Wiley, 2004, p.596.

17. B.T. Ibragimov, M.Y. Ergashov, A.G. Yeshimbetov, E.B. Eshtemirov, A.T. Jo‘rayev. Kimyoda kompyuter modellashtirish. [Matn]: darslik / - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJ ning Kamolot nashriyoti, 2022. -284 b.

18. Rappoport D., Furche F. Property-optimized Gaussian basis sets for molecular response calculations //The Journal of chemical physics. – 2010. – T. 133. – №. 13. – C. 134105.

19. Scuseria G. E. Linear scaling density functional calculations with Gaussian orbitals //The Journal of Physical Chemistry A. – 1999. – T. 103. – №. 25. – C. 4782-4790.

20. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ PASS № 2006613275 от 15 сентября 2006 г., Москва, Федеральная служба по интеллектуальной собственности, патентам и товарным знакам.

21. Филимонов Д.А., Поройков В.В. Прогноз спектров биологической активности органических соединений // Российский химический журн. — 2006. № 2(50). — С. 66–75.

22. Liu, Y., Grimm, M., Dai, W. T., Hou, M. C., Xiao, Z. X., & Cao, Y. (2020). CB-Dock: a web server for cavity detection-guided protein–ligand blind docking. Acta Pharmacologica Sinica, 41(1), 138-144.

23. Liu Y. et al. CB-Dock2: Improved protein–ligand blind docking by integrating cavity detection, docking and homologous template fitting //Nucleic acids research. – 2022. – T. 50. – №. W1. – C. W159-W164.

24. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Xoliqova G.Q., Jumayeva Z.R., Samiyev S.N. L-Leysin Aminokislotasining Kimyoviy Xossalari Va Kvant-Kimyoviy Hisoblashlari //Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 92-96.

25. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Xoliqova G.Q., Jumayeva Z.R., Samiyev S.N. Glitsin aminokislotasining kvant-kimyoviy hisoblashlari. “Fizikaviy va kolloid kimyo

fanlarining fundamental va amaliy muammolari hamda ularning innovatsion yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 9-10 fevral. Namangan. 2024. B. 1113-1116

26. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Samiyev S.N., Jumayeva Z.R., Xoliqova G.Q. Glitsin aminokislotasining kvant-kimyoviy hisoblashlari. Tibbiyot sohasida tibbiy kimyo, biokimyo va biofizikada istiqbolli tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. Buxoro. 17-18may. B. 175-178

27. Крауклис И. В. и др. Спектры комбинационного рассеяния света глицина и их моделирование в дискретно-континуальной модели сольватной оболочки воды //Оптика и спектроскопия. – 2020. – Т. 128. – №. 10. – С. 1488-1491.

28. Ganiyev B.Sh., Jumaqulov Sh.T., Jumayeva Z.R., Xoliqova G.Q., Samiyev S.N. Glitsin va alanin aminokislotalarining 5XMZ oqsiliga molekulyar dokingi. “Kimyoning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 21-22-iyun. Urganch. 2024. B. 340-342

29. Авезов Қ.Ғ., Умаров Б.Б., Ганиев Б.Ш., Эргашова Б.З., Холиқова Г.Қ. 2-трифторацетилциклогексанон бензоилгидразонининг 5XMZ оқсилига таъсирини молекуляр докинг усулида ўрганиш. “Супрамолекуляр кимёнинг ютуқ ва истиқболлари” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани. 15 май. Тошкент. Б. 62-63

30. Rahmatova R.S., Abduraxmonov S.F., Xudoyarova E.A., Ganiyev B.Sh., Mardonova G.E. Asetilasetoanilidning xossalari va molekulyar dokingi. “Supramolekulyar kimyoning yutuq va istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 15 may. Toshkent. B. 216-218

31. Homitova G.Z., Avezov H.T., Ganiyev B.Sh. Qalampir yalpiz o‘simligidan ajratib olingan efir moyi tarkibidagi mentolning molekulyar dokingi. “Supramolekulyar kimyoning yutuq va istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 15 may. Toshkent. B. 187-189

32. Авезов Қ.Ғ., Умаров Б.Б., Холикова Г.Қ. PASS ONLINE, CB-DOCK2, ARGUSLAB дастурларида 2-трифторацетил-циклогексанон бензоилгидразонининг анализи ва молекуляр докинги. “Товарлар кимёси ҳамда Халқ табобати муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги X Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжуман. Андижон. 2023 й. 15-16 сентьябр. Б. 63-65

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12922517

ALANIN AMINOKISLOTASINING DFT HISOBLASHLARI, PASS ANALIZI VA MOLEKULYAR DOKINGI

Ganiyev Baxtiyor Shukurulloyevich,
Akramov Abror Yangiyevich,
Xoliqova Gulyayra Qo‘ldoshevna,
Jumayeva Zarina Rustam qizi
Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA

*Maqolada alanin aminokislotasining kimyoviy xossalari va kvant-kimyoviy hisoblashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlil etilib, natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik o`rganiladi. Gaussian dasturida alaninning geometriyasini to‘liq optimallashtirish bilan elektron tuzilishini hisoblash DFT - funktsional zichlik nazariyasi usulida B3LYP/6-31**G va B3LYP/6-311++G(d,p) hamda M062X/6-311++G** valent bo‘lingan asosli to‘plamlar doirasida amalga oshirildi. Shuningdek, alanin molekulasining biologik faolligi – PASS analizi va molekulyar doking usullarida baholandi.*

Kalit so`zlar: *aminokislota, kvant-kimyoviy hisoblash, DFT, HOMO, LUMO, alanin, PASS analiz, molekulyar doking.*

Kirish

Barcha oqsillarning asosiy qurilish elementlari aminokislotalar ekanligi ko‘pdan buyon ma’lum bo‘lsa ham, oqsillarning to‘la aminokislotali tarkibi faqat XX asrning 30-yillaridagina batamom belgilandi. Buning sababi, bir tomondan aminokislotalar hali yaxshi o‘rganilmagani, oqsil tarkibiga qaysi aminokislotalar kirganligi aniq ma’lum bo‘lmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan ularning ayrim vakillarini sifat va miqdor analizi usullari hali mukammal bo‘lmaganligi edi. Bu muammo faqat 40- yillarning boshlarida qog‘oz xromotografiyasi usuli qo‘llanilishi bilan hal bo‘ldi [1-6].

α - aminokislotalar - geterofunktsional birikmalardir. Ular tarkibida karboksil - COOH va aminokislota -NH_2 guruhlari mavjud. Amino-guruh barcha proteinogen

aminokislotalarda α - uglerod atomida joylashganligidan, ular α - aminokislotalar qatorini tashkil qiladilar. Ularning umumiy formulasi quyidagicha:



Demak, barcha aminokislotalar bir-biridan faqat tarkibidagi R - radikali bilan farqlanadi. − $CH(NH_2)$ − COOH qismi esa hamma aminokislotalarda bir xil.

Peptidlar, umuman oqsil molekulalarining aminokislota tarkibi yozilganda, ularning nomi boshlang‘ich uch harfdan tuzilgan qisqartmalaridan foydalaniladi [4, 6]. Masalan, Alanin - Ala, Fenilalanin - Fen. Radikal (R) ning tabiati, unda qo‘shimcha amino-, karboksil- va boshqa funktsional guruhlarning mavjud bo‘lishiga qarab aminokislotalar turli guruhlarga bo‘linadi.

Ushbu maqolada aminokislotalarning bir turi – alaninning kvant-kimyoviy hisoblash usulida olingan natijalar muhokamasi va biologik faolligini baholashning – PASS analiz hamda molekulyar doking usulida o`rganilgan tadqiqot natijalari bayoni keltirilgan.

Eksperimental qism

Alanin molekulasining kvant-kimyoviy hisoblashlash ishlari shaxsiy kompyuterda Frisch va boshqa hammualliflikda yaratilgan Gaussian 09W dasturiy ta’minoti amalga oshirildi [7-11]. Beckning uch parametrli funksional gibridini LYP funksional korrelyatsiyasi bilan birgalikda ishlatish (B3LYP) eng mustahkam gibrid oilalardan biri hisoblanadi [7, 10, 11]. Gaussiandagi hisoblangan out fayllari Gauss View dasturi yordamida vizualizatsiyalashtiriladi [7]. Elektron xossalarni, YuBMO-QBMO/(HOMO-LUMO) energiyalarni, zaryadlarning atomlar bo'yicha Malliken taqsimotini hisoblashlar funksional zichlik nazariyasi (DFT) (B3LYP) usuli yordamida 6-311G++ (d, p) asosli to'plam bilan amalga oshirildi.

Ushbu maqolada alaninning biologik faolligi PASS – komputer dasturi yordamida bashorat qilindi. Bu dastur PASS (Prediction Activity Structure Substances – Moddalarning tuzilishiga asosan faolligini bashorat qilish) Rossiyalik olimlar V.V. Poroikov hamda D.A. Filimonovlar tomonidan yaratilgan [12]. PASS online dasturi (https://www.way2drug.com/PASSOnline/index.php) biologik faolligi ma'lum bo'lgan 30 000 dan ortiq biologik faol moddalarni o'z ichiga olgan majmuani o'z ichiga oladi va 400 dan ortiq farmakologik ta'sirlarni, ta'sir qilish mexanizmlarini, shuningdek mutagenlik, kanserogenlik, teratogenlik va embriotoksiklikni qamrab oladi [13]. PASS ochiq tizim bo`lib, foydalanuvchi mavjud o'quv majmuasiga qo'shimcha moddalar qo'shishi yoki uni qayta yaratishi va tizimni qayta tayyorlashi mumkin.

Alanin aminokislotasining zamburug`ga nisbatan faolligi ***Vertisilium dalhliae*** zamburug‘idan olingan oqsil (PDB ID: 5xmz) ga CB-Dock2 onlayn serveri yordamida o‘zaro ta’sirini o‘rganildi va natijalar maqolaning muhokama bo`limida bayon etildi [14, 15].

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

Alanin — aminopropion kislotasi. Har turli oqsillarning tarkibiga kiradi. Qon plazmasida bo‘sh uchraydi; oqsil tarkibiga kiradigan 20-ta aminokislotalarning biri: CH_3-CH-(NH_2)-COOH tabiatda aminokislotaning 2 izomeri turida keng tarqagan [4, 6]. Aminokislotalardan glitsin va leysinga xos kvant-kimyoviy hisoblashlar mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari sifatida nashr etilgan bo`lib, ushbu maqolada alanin molekulasining kvant-kimyoviy hisoblashlari muhokama etilgan [16, 17, 18].

DFT hisoblashlari

Alanin molekulasining infraqizil, Raman va elektron spektrlari qattiq va suvli eritmada o'rganilgan. Neytral va uning svitter-ion shaklidagi alaninning asosiy holatlari va quyi bo`sh elektron holatlarining energiyalari uchun tebranish chastotalari DFT usullari yordamida turli xil asos to'plamlari bilan hisoblab chiqilgan. Gaussian dasturi B3LYP/6-31**G va MO62X/3-311+G** usullari bilan gaz fazasida L -alaninning tebranish chastotalari bo'yicha hisoblashlar amalga oshirildi (1-2-rasmlar).



1-rasm. B3LYP/6-31++G usulida optimizatsiyalangan alanin molekulasining tuzilishi



2-rasm. MO62X/3-311+G** usulida optimizatsiyalangan alanin molekulasining tuzilishi

1-jadvalda turli hisoblash usullari (PM6, PM3, AM1, RM1 va MNDO) yordamida gaz va suvli fazalardagi o'rganilayotgan alanin uchun hisoblangan ba'zi energetik parametrlarining qiymatlari ko'rsatilgan. Chegara molekulyar orbitallarning energiyalari (yuqori band molekulyar orbitalning energiyasi E_{HOMO} va quyi bo'sh molekulyar orbitalning energiyasi E_{LUMO}) kimyoviy moddaning reaktivligini aniqlash uchun muhim parametrlardir. Korroziyani ingibirlash samaradorligi va bir nechta kvant kimyoviy parametrlari, jumladan E_{HOMO} va E_{LUMO} o'rtasida yaxshi bog'liqlik

asosida topiladi. E_{HOMO} bo'sh molekulyar orbital bilan mos keladigan qabul qiluvchiga elektronlarni berish uchun inhibitor molekulasining joylashishi bilan bog'liq. Shunday qilib, E_{HOMO} qiymatini oshirish adsorbsiyani rag'batlantirishi va shuning uchun inhibisyon samaradorligini oshirishi mumkin.



3-rasm. Alaninning molekulasi YuBMO va QBMO energetik diagrammasi

Boshqa tomondan, E_{LUMO} alanin molekulasining elektronlarni qabul qilish qobiliyatini ko'rsatadi, bu o'rganilayotgan aminokislotalarning ingibirlash samaradorligi E_{LUMO} qiymatlarining pasayishi bilan oshishi kutilayotganligini anglatadi (3-rasm). E_{HOMO} va E_{LUMO} uchun olingan natijalarga asoslanib, o'rganilayotgan aminokislotalarning ingibirlash samaradorligi eksperimental natijalardan olingan tendentsiyaga mos kelishini aytish mumkin.

Shuningdek, 1-jadvalda alanin molekulasining turli yarim empirik usullar bilan hisoblangan dipol moment qiymatlari ham keltirilgan. Aminokislota dipol momentining pasayishiga asoslanib, ingibirlash samaradorligining kutilayotgan tendentsiyasi ham chegara molekulyar orbitallarning energiyasiga asoslangan tendentsiyaga mos keladi [19].

1-jadval

Gaz fazada va suv muhitida hisoblangan alanin molekulasining energetik parametrlari

Hisoblash usullari	Gaz fazada				Suv muhitida			
	L (Debye)	*E*HOMO (eV)	*E*LUMO (eV)	*E*L–H (eV)	L (Debye)	*E*HOMO (eV)	*E*LUMO (eV)	*E*L–H (eV)
PM6	2.02	–8.97	0.49	9.46	2.80	–9.10	0.22	9.32
PM3	1.61	–8.68	1.07	9.75	2.20	–8.71	0.94	9.65
AMI	1.52	–9.31	1.27	10.58	2.06	–9.34	1.11	10.45
RM1	1.51	–9.27	1.21	10.48	2.04	–9.32	1.05	10.37
MNDO	1.37	–9.68	1.06	10.74	1.89	–9.70	0.97	10.67
B3LYP/6-31++G	5.38	-6.968	0.347	7.315	5.42	-6.972	0.334	7.306

Alanin molekulasining infraqizil spektrlari Spectral Database for Organic Compounds, SDBS. spektral ma`lumotlar bazasidagi spektrlari tebranish chastotalari DFT usullari yordamida Gaussian dasturi B3LYP/6-31**G usuli bilan gaz fazasida hisoblangan L -alaninning IQ spektroskopik valent va deformatsion tebranish chastotalari taqqoslab o`rganildi (4-rasm).



4-rasm. Alaninning eksperimental va hisoblangan IQ spektrlari

PASS analizi

PASS dasturi stereoizomerlarning biologik faollikning namoyon bo'lishiga ta'sirini baholashga imkon bermaydi, chunki hozirgi vaqtda ko'plab moddalarning fazoviy tuzilishining xususiyatlarini hisobga oladigan dasturiy ta`minot mavjud emas. Tabiiyki, PASS dasturi tomonidan bashorat qilingan biologik faolliklarini tahlil qilishda eksperimental sinovlarning real imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Bunday holda, biologik faollikni eng ko`p ehtimoldan eng kam ehtimolgacha ketma-ket o'rganish tavsiya qilinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, PASS dasturi ma'lum bir moddaning dori vositasiga aylanishini oldindan aytib bera olmaydi, chunki bu bir qator turli omillarga bog'liq. Biroq, bashorat, tahlil qiluvchining qaysi biologik faolliklari uchun birinchi navbatda sinovdan o'tkazilishi kerakligini va qaysi moddalar kerakli faollikni namoyon etishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. PASSda qo'llaniladigan matematik algoritm maqsadli tahlil qilish va shunga o'xshash muammolarni hal qilish uchun ko'p sonli turli usullarning samaradorligini taqqoslash orqali tanlangan. PASS tizimini amaliy qo'llash uchun 85% bashorat qilishning aniqligi etarli, chunki 780 turdagi faoliyatdan birini tasodifiy taxmin qilishning kutilayotgan ehtimoli taxminan 0,1% ni tashkil qiladi [12, 13, 20].

PASS dasturi yordamida alifatik monoamino- monokarbon kislota –alaninning biologik faolliklari o`rganildi (2-jadval).

2-jadval

Alaninning PASS online dasturi bo`yicha birikmalarning yuqori biologik faollik turlari va ko`rsatkichlari

P_a - Faollik	P_i - Nofaollik	Biologik faollik turi
0,963	0,002	Acylcarnitine hydrolase inhibitor
0,955	0,002	NADPH peroxidase inhibitor
0,949	0,001	Dimethylargininase inhibitor
0,945	0,001	NADPH-cytochrome-c2 reductase inhibitor
0,943	0,002	Arginine 2-monooxygenase inhibitor
0,942	0,001	Aspartate-ammonia ligase inhibitor
0,943	0,002	Arylacetonitrilase inhibitor
0,938	0,004	Membrane integrity agonist
0,935	0,003	Superoxide dismutase inhibitor
0,932	0,002	Glutamine-phenylpyruvate transaminase inhibitor
0,929	0,001	S-alkylcysteine lyase inhibitor
0,925	0,002	Mucinaminylserine mucinaminidase inhibitor
0,926	0,004	Sphinganine kinase inhibitor
0,924	0,002	Lysine 2,3-aminomutase inhibitor
0,922	0,001	Glycine dehydrogenase (decarboxylating) inhibitor
0,924	0,004	Chymosin inhibitor
0,924	0,004	Saccharopepsin inhibitor
0,924	0,004	Acrocylindropepsin inhibitor
0,925	0,004	Methylenetetrahydrofolate reductase (NADPH) inhibitor
0,923	0,003	Antiseborrheic
0,921	0,002	Fragilysin inhibitor
0,920	0,002	Pseudolysin inhibitor
0,920	0,002	Omptin inhibitor
0,918	0,004	Phobic disorders treatment
0,915	0,002	Threonine aldolase inhibitor
0,917	0,004	Pro-opiomelanocortin converting enzyme inhibitor
0,916	0,003	Monodehydroascorbate reductase (NADH) inhibitor
0,915	0,002	Fusarinine-C ornithinesterase inhibitor
0,916	0,004	Beta-adrenergic receptor kinase inhibitor
0,916	0,004	G-protein-coupled receptor kinase inhibitor
0,913	0,003	Protein-disulfide reductase (glutathione) inhibitor
0,910	0,002	Levanase inhibitor
0,908	0,001	D-alanine 2-hydroxymethyltransferase inhibitor
0,907	0,002	Leucolysin inhibitor
0,909	0,005	Polyporopepsin inhibitor
0,906	0,002	Methylamine-glutamate N-methyltransferase inhibitor
0,906	0,003	Fucosterol-epoxide lyase inhibitor
0,908	0,006	Mucositis treatment
0,901	0,002	Hydrogen dehydrogenase inhibitor
0,901	0,004	Peptidyl-dipeptidase Dcp inhibitor

Alaninning 5XMZ oqsiliga molekulyar dokingi

Molekulyar doking usuli kimyo va biologiyada reseptor-substratning o‘zaro ta'siriga asoslangan yangi biologik faol birikmalarni aniqlash uchun keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, usul bizga ligand yoki kompleksning makromolekula bilan o‘zaro ta'sir mexanizmini o‘rganishga va oqsilning faol markazida ligandning qulay konformasiyasini topishga imkon beradi. Shuni inobatga olgan holda biz aminokislotalarning ***Vertisilium dalhliae*** (PDB ID: 5xmz) zamburug‘idan olingan oqsilga CB-Dock2 onlayn serveri yordamida o‘zaro ta’sirini o‘rgandik va natijalar ushbu bo’limda bayon etildi [14, 15, 21-25].

CB-Dock2 onlayn serveri yordamida dastlab 5XMZ oqsilining ligand – alanin bilan ta'sirlashish bo‘shliqlari izlandi, bunda 103, 92, 88, 55 va 48 $Å^3$ hajmdagi 5 ta faol bo‘shliq markazi aniqlandi (5-rasm, 3-jadval). So‘ng ligand va oqsil serverga yuklanib, molekulyar dokingi amalga oshirildi.

3-jadval

Alaninning 5XMZ oqsiliga molekulyar doking natijalari

Bo‘shliq raqami	Bo‘shliq hajmi ($Å^3$)	Markaz (x, y, z)	Bo‘shliq o‘lchami (x, y, z)	Bo‘shliq raqami	Vina score	Bo‘shliq hajmi ($Å^3$)	Markaz (x, y, z)	Doking hajmi (x, y, z)
C1	103	-11, 31, 2	12, 9, 6	C3	-4.0	88	-24, 27, -4	15, 15, 15
C2	92	-21, 37, 0	8, 5, 5	C1	-3.3	103	-11, 31, 2	15, 15, 15
C3	88	-24, 27, -4	6, 7, 7	C5	-2.9	48	-10, 22, -22	15, 15, 15
C4	55	-7, 36, -4	7, 5, 8	C4	-2.8	55	-7, 36, -4	15, 15, 15
C5	48	-10, 22, -22	5, 5, 3	C2	-2.7	92	-21, 37, 0	15, 15, 15

Oqsil va ligandning o‘zaro ta'siridan yuqoridagi keltirilgan bo‘shliqlarga mos ravishda -4,0; -3,3; -2,9; -2,8 va -2,7 kcal/mol energiyaga ega faollik kuzatildi (6-rasm). Natijalar shuni ko‘rsatadiki hajmi eng katta va eng kichik bo‘shliqda ligandning faolligi yuqori bo‘ladi.



5-rasm. Bo‘shliqlarni qidirish natijalari



6-rasm. 5XMZ oqsilining izlangan bo‘shliqlariga ligandning o‘zaro ta’siri

Xulosalar

Xulosa o`rnida olngan tadqiqot natjilari asosida quyidagilarni ta`kidlash mumkin:

- kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida korroziya ingibitorlik xossasi aniqlandi.
- biologik faolliklari PASS analizi va molekulyar doking asosida baholanib, 40 dan ortiq biologik faollik hamda 5XMZ oqsiliga nisbatan -4,0 kcal/mol ta`sir energiyasi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Северин Е.С. Биохимия: Учебник для вузов под. редакции Северина Е.С. – Москва: ГЭОТАР Медиа. – 2004. – 784 с.

2. Сыровая А.О., Шаповал Л.Г., Макаров В.А. и др. Аминокислоты глазами химиков, фармацевтов, биологов в двух томах. - Харьков. – Щедра садиба плюс.- 2014. – Том №1. – 228 с.

3. Qodirova Z.K. Bioorganik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvoxnoma. № DGU 35294. Talabnoma DGU 202402965. Dasturiy mahsulotlar davlat reestrida 25.03.2024 y. ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

4. Qodirova Z.K. Bioorganik kimyodan laboratoriya mashg’ulotlari. O’quv qo’llanma. Buxoro, Durdona. 2022. -144 b.

5. Племенков В.В. Введение в химию природных соединений. Казань. 2001. 376 с.

6. Тюкавкина Н.А., Бауков Ю.И.. Биоорганическая химия. 3-е издание. Москва. 2004. 528 с.

7. Бутырская Е.В., Компьютерная химия: основы теории и работа с программами Gaussian и Gaus Veiw. Москва, Салон-Пресс, 2011, 224 с.

8. Cramer J.C. Essentials of Computational Chemistry. Theories and Models. John Wiley, 2004, p.596.

9. B.T. Ibragimov, M.Y. Ergashov, A.G. Yeshimbetov, E.B. Eshtemirov, A.T. Jo‘rayev. Kimyoda kompyuter modellashtirish. [Matn]: darslik / - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022. -284 b.

10. Rappoport D., Furche F. Property-optimized Gaussian basis sets for molecular response calculations //The Journal of chemical physics. – 2010. – Т. 133. – №. 13. – С. 134105.

11. Scuseria G. E. Linear scaling density functional calculations with Gaussian orbitals //The Journal of Physical Chemistry A. – 1999. – Т. 103. – №. 25. – С. 4782-4790.

12. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ PASS № 2006613275 от 15 сентября 2006 г., Москва, Федеральная служба по интеллектуальной собственности, патентам и товарным знакам.

13. Филимонов Д.А., Поройков В.В. Прогноз спектров биологической активности органических соединений // Российский химический журн. — 2006. — № 2(50). — С. 66–75.

14. Liu, Y., Grimm, M., Dai, W. T., Hou, M. C., Xiao, Z. X., & Cao, Y. (2020). CB-Dock: a web server for cavity detection-guided protein–ligand blind docking. Acta Pharmacologica Sinica, 41(1), 138-144.

15. Liu Y. et al. CB-Dock2: Improved protein–ligand blind docking by integrating cavity detection, docking and homologous template fitting //Nucleic acids research. – 2022. – Т. 50. – №. W1. – С. W159-W164.

16. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Xoliqova G.Q., Jumayeva Z.R., Samiyev S.N. L-Leysin Aminokislotasining Kimyoviy Xossalari Va Kvant-Kimyoviy Hisoblashlari //Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 92-96.

17. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Xoliqova G.Q., Jumayeva Z.R., Samiyev S.N. Glitsin aminokislotasining kvant-kimyoviy hisoblashlari. “Fizikaviy va kolloid kimyo fanlarining fundamental va amaliy muammolari hamda ularning innovatsion yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 9-10 fevral. Namangan. 2024. B. 1113-1116

18. Jumaqulov Sh.T., Ganiyev B.Sh., Samiyev S.N., Jumayeva Z.R., Xoliqova G.Q. Glitsin aminokislotasining kvant-kimyoviy hisoblashlari. Tibbiyot sohasida tibbiy kimyo, biokimyo va biofizikada istiqbolli tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to’plami. Buxoro. 17-18may. B. 175-178

19. Arslan T, Kandemirli F, Ebenso EE, Love I, Alemu H. Quantum chemical studies on the corrosion inhibition of some sulphonamides on mild steel in acidic medium. Corrosion Sci 2009;51(1):35–47.

20. Filimonov D. A. et al. Prediction of the biological activity spectra of organic compounds using the PASS online web resource //Chemistry of Heterocyclic Compounds. – 2014. – Т. 50. – С. 444-457.

21. Ganiyev B.Sh., Jumaqulov Sh.T., Jumayeva Z.R., Xoliqova G.Q., Samiyev S.N. Glitsin va alanin aminokislotalarining 5XMZ oqsiliga molekulyar dokingi. “Kimyoning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 21-22-iyun. Urganch. 2024. B. 340-342

22. Авезов Қ.Ғ., Умаров Б.Б., Ганиев Б.Ш., Эргашова Б.З., Холиқова Г.Қ. 2-трифторацетилциклогексанон бензоилгидразонининг 5XMZ оқсилига таъсирини молекуляр докинг усулида ўрганиш. “Супрамолекуляр кимёнинг ютуқ ва истиқболлари” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани. 15 май. Тошкент. Б. 62-63

23. Rahmatova R.S., Abduraxmonov S.F., Xudoyarova E.A., Ganiyev B.Sh., Mardonova G.E. Asetilasetoanilidning xossalari va molekulyar dokingi. “Supramolekulyar kimyoning yutuq va istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 15 may. Toshkent. B. 216-218

24. Homitova G.Z., Avezov H.T., Ganiyev B.Sh. Qalampir yalpiz o‘simligidan ajratib olingan efir moyi tarkibidagi mentolning molekulyar dokingi. “Supramolekulyar kimyoning yutuq va istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 15 may. Toshkent. B. 187-189

25. Авезов Қ.Ғ., Умаров Б.Б., Холикова Г.Қ. PASS ONLINE, CB-DOCK2, ARGUSLAB дастурларида 2-трифторацетил-циклогексанон бензоилгидразонининг анализи ва молекуляр докинги. “Товарлар кимёси ҳамда Халқ табобати муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги X Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжуман. Андижон. 2023 й. 15-16 сентьябр. Б. 63-65

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.13300834

GEOGRAFIYA ILIMINE QARASLARDÍŃ TARIYXÍY BAǴDARLARÍ

Uzakbaev K.K.
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya oqıtıw metodikası kafedrası assistent oqıtıwshısı
Turǵanbaev D.N.
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları tálim baǵdarı 1-kurs studenti

Annotaciya: *bul ilimiy maqalada geografiya ilimine qaraslardıń tariyxıy baǵdarları haqqında sóz baradı.*

Tayanısh túsinikler: *A.Gumboldt, I.Kant, K.Ritter, F.Rixtgofen, N.Baranskiy, tábiyiy geografiya, ekonomikalıq-sociallıq geografiya, "Kosmos", "Zamanagóy geografiyanıń wazıypaları hám metodları".*

Kirisiw. Geografiya ilimi úlken tariyxqa iye ilimlerdiń biri esaplanıp, ótken tariyxıy dáwirler dawamında bul ilimge ilimpazlar hár qıylı kózqarastan baha bergen. Bunıń nátiyjesinde geografiya iliminiń úyreniw obyekti hám predmeti máselesinde túrlishe pikirler júzege kelgen.

Geografiya sózi grek tilinen alınǵan bolıp, "geo" - jer, "grafo" - jazaman degen mánisti bildiredi. Bul ilim júdá erte dáwirlerden baslap qáliplesken bolıwına qaramastan, oǵan usı atamanı b.e.sh. III ásirde grek ilimpazı Eratosfen bergen. Geografiya ilimi búgingi dáwirge shekem birqansha rawajlanıw basqıshların basıp ótti. Hár bir dáwirde oǵan bir-birinen parıq qılatuǵın kózqaraslar menen múnásibette bolındı.

Tiykarǵı bólim. Ullı geografiyalıq ashılıwlardan keyin de geografiyanıń ilimler sistemasındaǵı ornı máselesinde bir-birinen parıq qılatuǵın pikirler kóp boldı. Ullı tábiyattanıwshı ilimpaz A.Gumboldt óziniń bes tomnan ibarat "Kosmos" atlı miynetinde geografiyaǵa tiyisli kózqarasların bayan etti. Ol geografiyanı tábiyattanıw ilimi dep esaplaǵan, onı jerdiń tábiyiy jaǵdayın súwretlewshi ilim dep ataǵan hám onıń maqseti "kópliktegi birlikti biliw, ulıwma nzamlıqlardı úyreniw" dep aytıp ótken. Gumboldt organikalıq tirishiliktiń jansız tábiyatqa baylanıslılıǵın úyreniwdi jerdegi hádiyselerdegi sebeplik qatnasıqlardı túsiniwdiń tiykarǵı wazıypası dep esapladı [16]. Ósimlik qaplamı hám klimat ortasındaǵı baylanıslılıqtı úyrenip, eń áhmiyetli

geografiyalıq nızamlıqlardı - keńlik zonaların hám bálentlik poyasların belgilep berdi. Ol insandı tek ǵana tábiyattaǵı “jerdegi kúshlerge” tásiri kózqarasınan úyrengen. A.Gumboldt aymaqlardıń tábiyatı bir pútinlik, yaǵniy Jer sharı hám pútkil kosmos penen baylanıslı halda kórip shıǵılıwı kerek ekenligin aytadı.

A.Gumboldttıń zamanlası K.Ritter basqa baǵdardaǵı hám tiykarınan kabinet ilimpazı bolıp, Kanttan geografiyanıń xorologiyalıq kórinisin qabıl qıldı. Ritterdiń pikirine qaraǵanda, geografiya tariyxtı úyreniw ushın dáslepki sharayatlardı jaratıwı hám Jerdi tábiyiy dene sıpatında tábiyattanıw kózqarasınan emes, al onıń ruwxıy tárepten jaqsılanıwı ushın joqarıdan insan jasaytuǵın orın sıpatında úyreniwi kerek ekenligin aytadı. Kontinentlerdiń geometriyalıq formalarında ilimpaz jaratıwshınıń jasırın jobasın kórdi, onıń insaniyat táǵdiri ushın áhmiyetin ashıp beriwge umtıldı.

Karl Ritterdiń shákirti Ferdinand Rixtgofen 1883-jılda “Zamanagóy geografiyanıń wazıypaları hám metodları” miynetinde geografiya jerdi súwretlewshi ilim emes, al hádiyseler hám obyektler, jer betindegi sebeplik baylanıslar menen shuǵıllanatuǵın jer júzi haqqındaǵı ilim ekenligin aytqan hám geografiya iliminiń wazıypaları sıpatında tómendegilerdi belgilegen: 1) litosfera, gidrosfera hám atmosferanı materiallıq quram, transformaciyalar hám kelip shıǵıwı kózqarasınan úyreniw; 2) ósimlik hám haywanat dúnyasın birdey kózqarastan úyreniw; 3) insandı hám onıń materiallıq hám ruwxıy mádeniyatınıń júzege keliwin birdey principler tiykarında úyreniw [15].

Juwmaqlaw. Biz geografiya ilimine qaraslar haqqındaǵı pikirler máselesinde, Ferdinand Rixtgofenniń pikirine qosılamız. Sebebi, geografiya tek ǵana tábiyattı úyreniw menen sheklenip qalmastan, onda jasawshı xalıqtı, olardıń turmıs iskerligin, xojalıǵın úyreniwshi ilim bolıp esaplanadı. Usı orında F.Rixtgofenniń geografiya ilimi haqqındaǵı pikirine qosımsha retinde, geografiya tiykarınan aymaqlıq tarqalıw máseleleri menen shuǵıllanıwın esapqa alıw kerek. F.Rixtgofenniń anıqlamasında mine usı másele esapqa alınbaǵan. A.Gumboldt geografiyanı tábiyattanıw ilimi dep esaplawına sebep, onıń sayaxatshı hám tábiyat haqqındaǵı máselelerge qızıǵıwshı ilimpaz bolǵanlıǵı esaplanadı. Bul pikir geografiya iliminiń bir tarawı bolǵan tábiyiy geografiyanıń anıqlamasına tuwra keledi. Al, geografiyanıń ekinshi áhmiyetli tarawı esaplanǵan ekonomikalıq hám sociallıq geografiya tábiyattı súwretlewshi ilim emes, insan hám onıń xojalıq iskerligi, sonday-aq, olardıń aymaqlıq shólkemlestiriliwi máselelerin úyrenedi. Geografiya mine usı eki úlken taraw, yaǵniy tábiyiy hámde ekonomikalıq-sociallıq geografiyanıń birliginen turıwshı kólemli ilim bolıp tabıladı. Bul eki tarawdı bir-birinen bólek jaǵdayda emes, olardı óz ara baylanıslı halda úyreniw geografiyalıq izertlewlerdiń tiykarǵı mazmunın quraydı. Bul eki taraw geografiya ushın qustıń eki qanatı sıyaqlı áhmiyetke iye esaplanadı. Belgili geograf ilimpaz

N.N.Baranskiy aytqanınday, tábiyiy geografiya insandı, al ekonomikalıq-sociallıq geografiya tábiyattı umıtpawı kerek.

Joqarıda kórsetilgenindey ilimpazlar geografiya ilimine túrlishe kózqarastan baha beredi. Geografiya ilimine bolǵan kózqaraslardıń hár túrliligi onıń tábiyiy hám social-ekonomikalıq qanatların bir-birinen ajıratıw máselelerin de kórip shıǵıwdı alǵa súrdi. Biraq, uzaq jıllıq tájiriybe sonı kórsetedi, bul eki tarawdı bir-birinen ajıratıw múmkin emes. Sebebi, geografiya jer júziniń tábiyatı menen birgelikte onıń xalqı hám onıń xojalıq iskerligin úyrenedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Iskenderov A. B., Jaksimuratov A. B. ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍNDA SOCIALLÍQ TARAWDÍ RAWAJLANDÍRÍWDA ÁMELGE ASÍRÍP ATÍRǴAN IS-ILAJLAR // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 225-229.

2. Iskenderov, A. B., Uzaqbaev, Q. K., Sharibaev, A. M., & Djanabaev, I. B. (2019). Turizm hám rekreaciyalıq geografiya" páninen oqıw-metodikalıq qollanba. *Nókis-2019*, *128*.

3. Jaksimuratov A., Amidullaev B., Turdımuratova A. TURIZM GEOGRAFIYASING KELIB CHIQISH VA RIVOJLANISH TARIXI // *Научный Фокус*. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 389-392.

4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstannm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.

5. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. TERRITORIAL FORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.

6. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – С. 104-108.

7. Tursinbaevna, Gaypova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.

8. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari." *Fan va jamiyat* (2022).

9. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Xaliqqa xizmet ko'rsetiw tarawlari ekonomikasinin'geografiya ilimindegi orni." *Fan va jamiyat* (2019).

10. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Geografiya boyinsha mag'liwmatnama." *NMPI baspaxanası* (2017).

11. KEUNIMJAY-ULI, UZAKBAEV KOBLAN. "Qaraqalpaqstan Respublikasin ekonomikaliq rayonlastiriwdin'geografiyaliq tiykarlari." *Fan va jamiyat* (2023).

12. Uzakbaev K.K., Baltabaev, O.O., Jaksimuratov, A.B., Eshiniyazov, B.A. GEOGRAPHICAL BACKGROUND OF ARAL GEO-ECOLOGICAL DISASTER // *ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА И СОВРЕМЕННАЯ НАУКА*. – 2023. – С. 3-7.

13. Анисимова В. В., Романова И. А., Некрасова М. Л. География сферы обслуживания (третичный сектор экономики): учебное пособие. – Scientific magazine" Kontsep, 2014.

14. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – 2004.

15. Семенов-Тян-Шанский В.П. Район и страна. Ленинград.1928.

16. Исаченко А.Г. Теория и методология географической науки. — М.: Издательский центр «Академия», 2004. Стр-11.

17. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.

18. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.

19. Узакбаев К. К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.

20. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.13369334

ELEKTRON TA'LIM TIZIMIDA TALABA BILIMINI BAHOLASH UCHUN KLASTERLASH ALGORITMI: K YAQIN QO'SHNI (KNN) ALGORITMIDAN FOYDALANISH.

Ro'zimboyeva Sevara Nurmat qizi
Urganch Davlat Universiteti
rozimboyevasevara@gmail.com

Yuldashov Ollabergan Ergash o'g'li
Urganch Davlat Universiteti o'qituvchisi
ollaberganyuldashov@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi IT sohasi rivojlanib borayotgan davrda elektron ta'lim hamda unda talabalar bilimini baholash masalasi davr talabi sanaladi. Talaba bilimini baholashda ma'lumotlarni intellektli tahlil qilish ham dolzarb masaladir. Intellektli tahlil jarayon algoritmlari, ma'lumotlar ham holisona baholashga xizmat ko'rsatmog'i kerak. Ushbu maqolada talaba bilimini baholashda muhim o'rin tutadigan barcha attributlar va ularning qiymatlari e'tiborga olindi. Tuzilgan data set yordamida K yaqin qo'shni algoritmi asosida hisoblashlar amalga oshirildi. Talaba bilimini baholashda ushbu algoritmning afzallik hamda kamchilik jihatlari keltirib o'tildi.*

Kalit so'zlar: *Klasterlash, Evklid algoritmi, Xemming algoritmi, nominal attribut, numerik attribut.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены все атрибуты и их значения, играющие важную роль в оценке знаний учащихся. Расчеты проводились на основе алгоритма K ближайших соседей с использованием созданного набора данных. Отмечены преимущества и недостатки данного алгоритма при оценке знаний учащихся.*

Ключевые слова: *кластеризация, алгоритм Евклида, Манхэттенский алгоритм, номинальный атрибут, числовой атрибут.*

Abstract. *In this article, all the attributes and their values that play an important role in evaluating student knowledge are considered. Calculations were made based on the K nearest neighbor algorithm using the created data set. Advantages and disadvantages of this algorithm were mentioned in the assessment of student knowledge.*

Key words: *Clustering, Euclidean algorithm, Manhetin algorithm, nominal attribute, numerical attribute.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida elektron ta’lim shakli ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Elektron ta’lim o‘zida ta’limning innovatsion yondashuvini qo‘llagan holda ta’lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediya va zamonaviy internet texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan ta’lim shakli sanaladi. [1] Elektron ta’lim tizimida talaba bilimini baholashda tahlil ma’lumotlari juda katta ahamiyatga ega. Holislikni amalga oshirish uchun tahlil ma’lumotlari va ularning qiymatlari to‘g‘ri tanlanmog‘i kerak.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarning tez su’ratlarda rivojlanishi axborot tizimlarining ko‘payishi va axborot hajmini keskin tarzda oshib borishiga sabab bo‘ldi. Natijada, axborotlarni avtomatik tarzda tahlil qilib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash, ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan bog‘liqligi, bashoratlash va xulosalar chiqarish kabi masalalar bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.[2], [3], [4], [5], [6] Ma’lumotlarni intelektual tahlil qilish aynan shunday masalalarni yechishga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda klasterizatsiya masalasini yechish uchun ko‘plab usullar va ular asosida bir nechta algoritmlar ishlab chiqilgan. Klasterlash bu klaster so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib guruhlarga ajratish degan ma’noni anglatadi . [7], [8]Klasterlashdan maqsad yangi bir testlanayotgan data setni klass ya’ni sinfini topish sanaladi. Klasterlash algoritmlaridan K yaqin qo‘shni algoritmi ham berilgan namunalar asosida yangi testlanayotgan namunaning (class) sinfini topish uchun keng qo‘llaniladigan algoritm sanaladi.[9], [10].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ta’lim sifatini intellektual tizimlar asosida doimiy takomillashtirishga qaratilgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etish borasida ko‘plab tizimli ishlar olib borilmoqda. Odatda katta hajmli ma’lumotlarni qayta ishlashda ma’lumotlarning intellektual tahlili usullaridan foydalaniladi. Ta’limda ma’lumotlarning intellektual tahlili (Educational Data Mining, EDM) – ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan foydali ma’lumotlarni olish usuli hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda asosan ikkita usuldan foydalaniladi: o‘quv analitikasi (Learning Analytics) hamda ta'limda ma'lumotlarning intellektual tahlili (Educational Data Mining, EDM).

Ma’lumotlarni intellektli tahlil qilish hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash borasida xorijiy va O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda mavzuga oid adabiyotlar sifatida quyidagi ishlarni keltirishimiz mumkin.

Ushbu[11] maqola mualliflari tomonidan ma’lumotlarni intellektli tahlil qilish usullari hamda sun’iy intellektning amaliy sohalarda qo‘llanilishi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu masala bo‘yicha neyron to‘rlar va uning tadbiqini esa ushbu maqola mualliflari ishida ko‘rishimiz mumkin.Data scince va uning algoritmlari tadbiqini esa ushbu maqolalar mualliflari ishida yoritilgan [12], [13], [14], [15], [16], [17].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bugungi IT sohasi rivojlanib borayotgan kunda har bir sohani avtomatlashtirish davr talabi sanaladi. Shuningdek ta'lim sohasini ham . Elektron ta'lim tizimida talaba bilimini baholashni optimallashtirishda biz sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda baholash modelini qurishimiz kerak. Ushbu maqolada Klasterizatsiya algoritmlaridan K yaqin qo'shni algoritmi ko'rib chiqildi.

K-Yaqin qo'shni (KNN) - bu mashinani o'rganish (Machine Learning) texnikasi va algoritmi regressiya va tasniflash vazifalari uchun ham foydalanish mumkin. K-Yaqin qo'shnilar (KNN) kontseptual jihatdan sodda, ammo juda kuchli algoritm bo'lib, shu sabablarga ko'ra u mashinani o'rganishning eng mashhur algoritmlaridan biridir. KNN yoki K-eng yaqin qo'shni algoritmi nazorat ostidagi o'rganish algoritmi bo'lib, u bir-biriga yaqin joylashgan har bir ma'lumot nuqtasi bir sinfda keladi degan printsip asosida ishlaydi. Bu yerda asosiy taxmin shundaki, bir-biriga yaqin bo'lgan narsalar bir-biriga o'xshaydi.

Algoritm quyidagi ketma-ketlik asosida ishlaydi.

1. Data set shakllantiriladi.
2. Yangi obyekt bilan data setdagi barcha obyektlar orasidagi masofa aniqlanadi.

   2.1 Masofani hisoblashda biz attributni turiga e'tibor qaratamiz. Agar attribut numerik bo'lsa ya'ni sonlardan tashkil topgan bo'lsa biz masofani hisoblashda Evklid algotirmi (metrikasi)dan foydalanamiz.

$$d(x_i, x_j) = \sqrt{\sum_{m=1}^{n}(x_{im} - x_{jm})^2}$$

   2.2 Agar berilgan attribut nominal bo'lsa Xemming masofadan foydalanib hisoblashlar amalga oshiriladi.

   Xemming masofasi: Bu usul ikkita qiymatni solishtirish uchun ishlatiladi. Agar ikki qiymat bir xil bo'lsa, masofa 0, agar farqli bo'lsa, masofa 1 deb belgilanadi.

   Masofa(A, B) = 0, agar A = B bo'lsa
   Masofa(A, B) = 1, agar A ≠ B bo'lsa

3. K qiymatini oldindan kiritib olamiz va k ta eng yaqin qo'shnisini ajratib olamiz. Shu o'rinda izoh sifatida to'xtalib o'tsam, biz kiritadigan k qiymatni odatda toq son qilib berish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunga sabab agar juft son kiritadigan bo'lsak eng yomon holat ya'ni 50 ga 50 holati yuzaga kelib qolishi mumkin. Bunday holatni oldini olish maqsadida K ning qiymati ko'p hollarda toq son qilib kiritiladi.

4. Hisoblash jarayoni tugagach masofalar o‘sish tartibida saralanadi , albatta klass o‘zgarmagan holda.
5. Ajratib olingan K ta qiymatning klasslari orasida qaysi biri ustun bo‘lsa natijamiz o‘sha klassga tegishli deb klassifikatsiya qilinadi.

Data setda 4 ta klass (qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi, a’lo) hamda quyidagi attributlar joylashgan :

1. Studentning ism familiyasini nomer ID bilan almashtirdik va albatta bu shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash maqsadida
2. Talabaning davomati – bunda qiymatlarimiz 3 ga bo‘linadi : A’lo, Yaxshi, Qoniqarli
3. Darsda qatnashishi- Har doim, Ba’zan , hech qachon
4. Amaliyot bahosi- baholar 5 lik baholash sistemasiga binoan 3,4,5 ko‘rinishida
5. Mustaqil ta’lim bahosi – bu ham amaliyot baho singari 3,4,5
6. Daftar – Daftar yozilishiga mavzular to‘liqligiga qarab To‘liq, Yaxshi, Yomon kabi qiymatlarga ajraladi.
7. Qo‘shimcha ish – Bunda qo‘shimcha ishning turiga ham e’tibor qaratdik ya’ni darslardan tashqari o‘z sohasiga oid , sohaga oid bo‘lmagan , Umuman ishlamasligi mumkinligi keltirib o‘tildi
8. To‘garak yoki kurs- Darslardan bo‘sh payti to‘garak yoki kurslarga qatnashishi ha yoki yo‘q kriteriya bo‘ylab belgilandi.
9. Laboratoriya bahosi – Amaliyot , Mustaqil ta’lim singari bu ham 3,4,5 kabi baholandi
10. Class – bu yakuniy natija sanaladi , unda qiymatlarimiz mos ravishda qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi, a’lo kabi belgilandi .

Ushbu masala uchun yaratilgan data set namuna sifatida faqat bir guruh birinchi bosqich talabalarning “ Dasturlash asoslari” fani bo‘yicha olingan natijalari asosida tashkil qilindi.

Biz yaratgan data setda numeric hamda nominal attributlarni ikkalasi ham qatnashgan bo‘lib, algoritmning ishlash prinsipi asosida hisoblashlarni amalga oshiramiz.

Yaratilgan data set ko‘rinishi , undagi attributlar, qiymatlari quyidagicha:

ID	Davomat	Darsda_qatnashishi	Amaliyot_bahosi	Mustaqil_ta_lim	Daftar	Qushimcha_ish	Tugarak_yoki_kurs	Laboratoriya_baho	Class
1	A_lo	Har_doim	4	5	Yaxshi	Yuq	Ha	5	5
2	A_lo	Har_doim	5	5	Yaxshi	Ha_sohaga_oid	Ha	5	5
3	A_lo	Har_doim	5	4	Tuliq	Yuq	Ha	4	4
4	A_lo	Har_doim	5	5	Yaxshi	Ha_sohaga_oid	Ha	5	5
5	Yaxshi	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Yuq	4	4
6	A_lo	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	4
7	Yaxshi	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	4
8	A_lo	Ba_zan	5	4	Yaxshi	Yuq	Yuq	4	4
9	A_lo	Har_doim	4	4	Tuliq	Yuq	Ha	4	4
10	Yaxshi	Ba_zan	3	3	Yaxshi	Yuq	Yuq	3	3
11	A_lo	Har_doim	4	4	Tuliq	Yuq	Ha	4	4
12	A_lo	Har_doim	5	5	Tuliq	Yuq	Ha	5	5
13	Yaxshi	Har_doim	4	4	Tuliq	Yuq	Yuq	4	4
14	Yaxshi	Ba_zan	3	4	Yaxshi	Yuq	Yuq	4	3
15	Yaxshi	Ba_zan	3	3	Yaxshi	Yuq	Yuq	3	3
16	Yaxshi	Ba_zan	3	3	Yaxshi	Yuq	Yuq	3	3
17	A_lo	Har_doim	5	5	Yaxshi	Ha_sohaga_oid	Ha	5	5
18	Yaxshi	Har_doim	5	5	Yaxshi	Yuq	Ha	5	5
19	A_lo	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	4
20	A_lo	Ba_zan	3	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	3
21	Yaxshi	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Yuq	4	4
22	Yaxshi	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Yuq	4	4
23	A_lo	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	4
24	A_lo	Har_doim	4	4	Yaxshi	Yuq	Ha	4	4
25	Qoniqarli	Ba_zan	3	3	Yaxshi	Ha_sohaga_oid_emas	Yuq	3	3

1-rasm

Yaratilgan data set Weka dasturiga yuklandi.





2-rasm **3-rasm**

Attributlarning vizual tasviri hamda qo‘llaniladigan algoritm ko‘rinishi quyidagicha:





4-rasm **5-rasm**

Olingan natija esa quyidagicha:

KNN (K Star)algoritmini qo‘llashda biz Cross-validation qismini tanlab , uning qiymatini 10 qilgan holatda ushbu natijaga ega bo‘ldik.



6-rasm

Yaratilgan data set KNN algoritmi hamda Cross -validation qo‘llanilganda model aniqligi 91% ni tashkil qildi. (6-rasm)

Shu o‘rinda Cross validation haqida to‘xtalib o‘tsak.

Cross-validation asosan modelni o‘rganish va sinovdan o‘tkazish jarayonida ishlatiladi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi modelni yaxshi ishlashi va uni yig‘iladigan ma'lumotlar (training) va sinovdan o‘tkazish (testing) jarayonlarida sinab ko‘rishdir. Bunday ko‘rsatkichlar yordamida modelni o‘rganishning samaradorligini aniqlash mumkin.



7-rasm

Yaratilgan data set KNN algoritmi hamda training va test datani 80 va 20 qilib ajratgandagi model aniqligi 91% ni tashkil qildi. (7-rasm)

Data set uchun qo‘llanilgan usullar natijalari bir xil qiymatni tashkil qildi, ya’ni model aniqligi: 91% ni tashkil qildi. Ushbu masalaga muvofiq python dasturlash muhitida, bulutli hisoblash texnologiyasi (Google colab) asosida dasturiy ta’minot shakllantirildi.

Masalani yechish uchun standartlashtirishdan foydalanish.

Ushbu rasmda standartlashtirish orqali optimal k ni topish grafigi keltirilgan bo‘lib, X o‘qida 40 gacha bo‘lgan qiymatlarda va Y o‘qida 1 gacha bo‘lgan qiymatlarda grafik minimum va maximum qiymat qabul qilishi keltirilgan.



8-rasm

Masalani yechish uchun normallashtirishdan foydalanish.



9-rasm

Ushbu rasmda esa normallashtirish orqali optimal k ni topish grafigi keltirilgan bo‘lib, X o‘qida 40 gacha bo‘lgan qiymatlarda va Y o‘qida 1 gacha bo‘lgan qiymatlarda grafik minimum va maximum qiymat qabul qilishi keltirilgan.

K ning qiymatini va testlanuvchi parametrlar qiymatlari console ekrandan kiritib oladigan qilindi. Ikkala holat uchun ham model aniqligi bir xil natija berdi , faqat optimal k qiymati farqli bo‘ldi.

Model aniqligi: 0.9285714285714286



10-rasm

K ning qiymatini va testlanuvchi parametrlar qiymatlari console ekrandan kiritib oladigan qilindi. Ikkala holat uchun ham model aniqligi bir xil natija berdi , faqat optimal k qiymati farqli bo‘ldi.

Model aniqligi: 0.9285714285714286

Yaratilgan data set hamda dasturiy ta’minot ushbu Git Hub profilga joylashtirildi:
https://github.com/RSevaraN/Magistr_dissertatsiya/blob/main/KNN_tayyor_proyekt.ipynb

XULOSA.

XXI asr axborot texnologiyalari asrida sun’iy intellekt algoritmlari , modellari rivojlanib borayotgani har bir sohaga ushbu sun’iy intellektni qo‘llashni taqozo qilmoqda . Ta’lim jarayonida ma’lumotlarning intellektual tahlili sun’iy intellekt metodlari yordamida avtomatlashtirilgan o‘qitish sohasida qo‘llanishining amaliy natijasi sanalib , ta’lim tizimlarining yangi avlodi hisoblanadi. Ushbu maqolada esa elektron ta’lim tizimida talaba bilimini baholashda ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish algoritmi bo‘lmish KNN algoritmi keltirib o‘tilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aynan talaba bilimini baholashda yoki bahoni oldindan bashorat (predikt)qilishda K yaqin qo‘shni algoritmini qo‘llash data setda numeric hamda nominal attributlardan foydalana olish jihati afzallik jihati

hisoblanadi. Chunki faqat baho taraflama qarash, faqat numerik attribut bilan cheklanish yoki o‘sha numerik attributlar yig‘indisining o‘rta arifmetiki olinish muammoni to‘liq yecha olmaydi. Berilgan masalani yechishda optimal k ning qiymatini topishga ham alohida e’tibor qaratildi. Bunda standartlashtirish hamda normallashtirishdan foydalanildi.

Ushbu masalani yechishda biz bir qator sun’iy intellekt algoritmlariga murojaat qildik. Algoritmlar natijalari ham tahlil qilindi, bir – biri bilan solishtirildi. Inson hayotida yoki bo‘lmasa uni bilim olishida unga ma’naviy taraflama ham ta’sir qiladigan jihatlarga e’tibor qaratildi va ulardan eng maqbul parametrlar saralab olinib attributlar ro‘yxatida shakllantirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talaba bilimini baholashda KNN algoritmini qo‘llash jarayonida olingan natijalar tahlil qilindi. Weka dasturida olingan natijalar skrinshot qilib asos sifatida keltirildi. Bir so‘z bilan aytganda, olingan natijalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu data set uchun KNN algoritmini qo‘llash yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

[1] D. Al-Fraihat, M. Joy, R. Masa’deh, and J. Sinclair, “Evaluating E-learning systems success: An empirical study,” *Comput Human Behav*, vol. 102, 2020, doi: 10.1016/j.chb.2019.08.004.

[2] X. Wang, P. Wu, G. Liu, Q. Huang, X. Hu, and H. Xu, “Learning performance prediction via convolutional GRU and explainable neural networks in e-learning environments,” *Computing*, vol. 101, no. 6, 2019, doi: 10.1007/s00607-018-00699-9.

[3] M. A. Almaiah, A. Al-Khasawneh, and A. Althunibat, “Exploring the critical challenges and factors influencing the E-learning system usage during COVID-19 pandemic,” *Educ Inf Technol (Dordr)*, vol. 25, no. 6, 2020, doi: 10.1007/s10639-020-10219-y.

[4] S. Alyahya and A. Aldausari, “An electronic collaborative learning environment for standardized tests,” *Electronic Journal of e-Learning*, vol. 19, no. 3, 2021, doi: 10.34190/ejel.19.3.2167.

[5] H. A. El-Sabagh, “Adaptive e-learning environment based on learning styles and its impact on development students’ engagement,” *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, vol. 18, no. 1, 2021, doi: 10.1186/s41239-021-00289-4.

[6] A. M. Maatuk, E. K. Elberkawi, S. Aljawarneh, H. Rashaideh, and H. Alharbi, “The COVID-19 pandemic and E-learning: challenges and opportunities from the

perspective of students and instructors," *J Comput High Educ*, vol. 34, no. 1, 2022, doi: 10.1007/s12528-021-09274-2.
[7] X. Wu, X. Zhu, G. Q. Wu, and W. Ding, "Data mining with big data," *IEEE Trans Knowl Data Eng*, vol. 26, no. 1, 2014, doi: 10.1109/TKDE.2013.109.
[8] N. Shah and K. Shah, "Introduction to Data Mining," in *Practical Data Mining Techniques and Applications*, 2023. doi: 10.1201/9781003390220-1.
[9] A. Abu, "Educational Data Mining & Students' Performance Prediction," *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, vol. 7, no. 5, 2016, doi: 10.14569/ijacsa.2016.070531.
[10] N. Sowmiya, E. B. Anitha, and M. Somu, "Student Performance Prediction via Online Learning Analytics using Exam Metrics," ... *Journal of Research in ...*, vol. 1, no. 43, 2021.
[11] J. Nurjamal, J. Qizi, and M. Al-Xorazmiy, "SUN'IY INTELLEKTNING AMALIY SOHALARDA QO'LLANISHI."
[12] A. Dirin and C. A. Saballe, "Machine Learning Models to Predict Students' Study Path Selection," *International Journal of Interactive Mobile Technologies*, vol. 16, no. 1, 2022, doi: 10.3991/IJIM.V16I01.20121.
[13] S. Raschka, J. Patterson, and C. Nolet, "Machine learning in python: Main developments and technology trends in data science, machine learning, and artificial intelligence," *Information (Switzerland)*, vol. 11, no. 4. 2020. doi: 10.3390/info11040193.
[14] A. W. Syaputri, E. Irwandi, and M. Mustakim, "Naïve Bayes Algorithm for Classification of Student Major's Specialization," *Journal of Intelligent Computing & Health Informatics*, vol. 1, no. 1, 2020, doi: 10.26714/jichi.v1i1.5570.
[15] R. A. Rustia, M. M. A. Cruz, M. A. P. Burac, and T. D. Palaoag, "Predicting student's board examination performance using classification algorithms," in *ACM International Conference Proceeding Series*, 2018. doi: 10.1145/3185089.3185101.
[16] K. Sunday, P. Ocheja, S. Hussain, S. S. Oyelere, O. S. Balogun, and F. J. Agbo, "Analyzing student performance in programming education using classification techniques," *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, vol. 15, no. 2, 2020, doi: 10.3991/ijet.v15i02.11527.
[17] M. Batta, "Machine Learning Algorithms - A Review," *International Journal of Science and Research (IJSR)*, vol. 18, no. 8, 2018.

TABLE OF CONTENTS

8
Ganiyev, B. S., Qodirova, Z. K., Xoliqova, G. Q., & Jumayeva, Z. R. qizi . (2024). GLITSIN AMINOKISLOTASINING KVANT-KIMYOVIY HISOBLASHLARI. Educational research in universal sciences, 3(7), 51–64. https://doi.org/10.5281/zenodo.12754112
9
Ganiyev, B. S., Akramov, A. Y., Xoliqova, G. Q., & Jumayeva, Z. R. qizi . (2024). ALANIN AMINOKISLOTASINING DFT HISOBLASHLARI, PASS ANALIZI VA MOLEKULYAR DOKINGI. Educational research in universal sciences, 3(7), 65–74. https://doi.org/10.5281/zenodo.12922517
10
Uzakbaev, K. K., & Turǵanbaev, D. N. (2024). GEOGRAFIYA ILIMINE QARASLARDÍŃ TARIYXÍY BAǴDARLARÍ. Educational research in universal sciences, 3(7), 75–78. https://doi.org/10.5281/zenodo.13300834
11
Ro'zimboyeva, S. N. qizi ., & Yuldashov, O. E. o'g'li . (2024). ELEKTRON TA'LIM TIZIMIDA TALABA BILIMINI BAHOLASH UCHUN KLASTERLASH ALGORITMI: K YAQIN QO'SHNI (KNN) ALGORITMIDAN FOYDALANISH. Educational research in universal sciences, 3(7), 79–88. https://doi.org/10.5281/zenodo.13369334